



## Matematika darslarida didaktik o'yinlarning tarbiyaviy vazifalari

**ERMATOVA NIGINA FARXOD QIZI**

Shahrisabz Davlat Pedagogika instituti 2-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitishda didaktik o'yinlardan foydalanish, didaktik o'yinlarning dars samaradorligiga ta'siri, o'quvchilarni matematika faniga qiziqtirishda didaktik o'yinlarning ahamiyati xususida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** didaktik prinsiplar, ta'limiy maqsad, tarbiyaviy maqsad, rivojlantiruvchi maqsad, kommunikativ-muloqot madaniyati.

Mamlakatimiz rivojlanish sari olg'a qadam qo'yar ekan, barcha sohalar singari ta'lim sohasining rivojlanishiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Buni isboti qilib dars jarayoniga zamonaviy texnologiyalarning kirib kelishi, darsliklar ustida alohida ishlash, innovatsion dars muhitini keltirishimiz mumkin.

Bugungi kunda maktab ta'lim tizimi sifatini oshirish maqsadida dars jarayonini o'zgacha muhitda, zamonga mos ravishda tashkil qilinmoqda. Ya'niki, XXI asrga hamohang ravishda AKT vositalari ishtirokidagi, interfaol metodlar asosidagi, o'quvchilar faolligini oshirish maqsadida didaktik o'yinlardan foydalanib tashkil qilinayotgan darslar bunga misoldir.

Dars jarayonida didaktik o'yinlarni tashkil etish bilim olishni didaktik o'yinlar bilan uyg'unlashtirgan holatda olib boriladi. Didaktik o'yinlar boshlang'ich sinf o'quvchilari



uchun axborot tashuvchi vosita kabidir. Didaktik o'yinlar orqali o'quvchilar o'zaro hamjihatlikka, birdamlikka o'rganadilar; muloqot layoqati shakllanib boradi.

Inson hayotida o'yin faoliyati orqali quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- o'yin orqali ma'lum bir faoliyatga qiziqish ortadi;
- kommunikativ-muloqot madaniyati shakllanadi;
- iqtidorni, qobiliyatni namoyon qilish uchun sharoit yaratiladi;
- o'yin faoliyati orqali hayotda ro'y berishi mumkin bo'lgan turli qiyinchiliklarga tayyorlanib boradi;
- ijtimoiy xulq-atvorni egallash va muhofaza qilish imkoniyati yaratiladi;
- ijobiy xislatlar shakllanishiga zamin yaratadi;
- milliy qadriyatlarimiz, ma'naviy boyliklarimizni o'rganish uchun vaziyat yuzaga keladi;
- jamoaviy muloqot madaniyati rivojlanadi.

Didaktik o'yinlar vositasida o'quvchilar o'tilgan mavzularni takrorlashi, yangi mavzuni tushunib olishi va mustahkamlashi mumkin. Didaktik o'yinlar o'quvchi xavfsizligi nuqtai nazaridan kelib chiqishi lozim. Ya'ni, didaktik o'yinlar o'quvchi yoshida mos bo'lishi, ta'limiy va tarbiyaviy maqsadga ega bo'lishi, vaqt reglamenti to'g'ri bo'lishi va o'quvchiga nisbatan qo'pollik holatlari yuzaga kelmasligi lozim.

O'qituvchi didaktik o'yinlarni tashkil qilishda quyidagi talablarga rioya qilishi muhimdir:

- didaktik o'yinli darslar o'quv dasturida qayd etilganidek ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsad va vazifalarni hal qilishi lozim;



- muhim muammolarga bag'ishlanishi va bu muammolar o'yin davomida hal qilishi zarur;
- sharqona odob-axloq normalariga rioya qilishi muhim;
- o'qin strukturasi mantiqiy ketma-ketlikda bajarilishi o'rinlidir.

O'qituvchi dars davomida didaktik o'yinlarni tashkil etishda quyidagilarga e'tibor qaratishi lozim:

- didaktik materiallarni yetarli darajada tayyorlashi;
- didaktik o'yinlarni tashkil qilish jarayonida yuzaga keladigan xatoliklarni oldini olish va nazorat qilish;
- didaktik o'yinlar yordamida o'quvchilarda ziyraklik va mustaqillik xislatlarini shakllantirib, rivojlantirib borish.

Didaktik o'yinlar o'quvchilarning yosh xususiyatlari va aqliy va jismoniy imkoniyatlaridan kelib chiqib o'rganiladigan yangi bilimlarni yengillik bilan o'zlashtirishga, ta'limda ko'rgazmalilikni ta'minlashga qaratilgan. Didaktik o'yinlar orqali o'quvchilar dars jarayonida faqat darslik bilan band bo'lib qolmaydilar, toliqlashlar, zerikishlar oldi olinadi.

Didaktik o'yinlar bolalar faoliyatini rivojlantiribgina qolmay, ularning fikrlarini bir joyda to'plab, tez va aniq bayon etishga, mashg'ulotlar jarayonida o'zaro hamjihatlikda faol harakat qilishga undaydi. O'quvchilarda bilim olishga, tengqurlaridan ortda qolmaslik hissi kuchayadi. Dars jarayonida jo'shqin vaziyat yuzaga keladi. Eng muhimi, bolalardagi iqtidor, salohiyat, maqsadga intiluvchanlik yuzaga chiqadi va mukammallashib boradi.

Didaktik o'yinlarning tarbiyaviy vazifalari tajribalarda shuni ko'rsatadiki, didaktik o'yinlar hamjihatlik va intizomlilikni tarbiyalaydi, o'quvchilarda o'zini tuta bilishlik, bir-birlarini o'zaro tinglash, fikr almashish kabi xislatlar shakllanadi.



Xulosa qilib aytganda, fanlarni o‘qitishda didaktik o‘yinlarning ahamiyati katta. Tan olish kerakki, oddiy an’anaviy dars jarayonida zerikishlar, mavzuni tushunmasliklar, topshiriqlar qiyinligi kabi holatlar o‘quvchilarga tanish. Ammo didaktik o‘yinlar vositasida tashkil qilinadigan darslarda har bitta o‘tiladigan mavzu o‘quvchilar uchun qiziqarli, intiqlik bilan kutilgan bo‘ladi. Negaki, bola tabiatan o‘yinga moyil. Shu nuqtayi nazardan o‘yin faoliyati bilan bog‘langan dars mashg‘ulotlari o‘quvchilar uchun eng manzur, eng sevimli dars bo‘ladi.

Muhtaram Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, maktabda o‘qitish metodikasi o‘zgarmas ekan, ta’lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o‘zgarmaydi. Albatta, ta’lim sifatini oshirish uchun, ta’lim sohasida yuksak cho‘qqilarni egallamoq uchun, ta’lim sohasini rivojlantirish uchun aniq maqsadlar qo‘yildi. Bu maqsadlarga Prezidentimizning yuqoridagi fikrlari shior bo‘lishi kerak, aslida. Shundagina mamlakatimiz ta’lim sohasi gurkirab rivojlanib boradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. M.E.Jumayev "Matematika o‘qitish metodikasi" Toshkent-2005
2. M.E.Jumayev, N.T.Axmedova, B.S.Abdullayeva, N.U.Asloнова "Boshlang‘ich sinflar uchun matematikadan didaktik materiallar" Toshkent-2016
3. B.Omonov "Qiziqarli matematika " Toshkent -1996
4. S.Alixonov "Matematika o‘qitish metodikasi " Toshkent -1992